

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Dilshod Rajab

*O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi,
“Oltin qalam” mukofoti sovrindori*

QURDOSH AKAGA

Bir yo‘lda yurgan bilan yo‘ldosh bo‘lolmas,
Yoningda turgan bilan yondosh bo‘lolmas.

Qo‘llamoq boshqa asli, qo‘l bermoq boshqa,
Qo‘l uzatgan har kimsa qo‘ldosh bo‘lolmas.

Tanishlaring behisob, chin do‘st yagona,
Ming sham yig‘ilsa ham, bir quyosh bo‘lolmas.

Tili boshqa-yu dili boshqalar bordir,
Tilida do‘st desa ham, dildosh bo‘lolmas.

Chin ilm sohiblarin yostig‘i toshdan,
Hammada bunday sabr-u bardosh bo‘lolmas.

Do‘st-u shogirdlar aytar ustoz haqida:
“Fidoyilikda har kim Qurdosh bo‘lolmas”.